

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI KUCHAYTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich

Diplomat University «Iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar» kafedrasida dotsenti

mansur1@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari bank faoliyatining samaradorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkonini bermoqda. Tadqiqotda so'nggi yillarda joriy etilgan mobil ilovalar, onlayn-banking va fintech yechimlarning banklararo raqobatga ta'siri statistik tahlil orqali o'rganiladi. Natijalar raqamli texnologiyalar bank tizimi barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, tijorat banklari, raqobat, fintech, onlayn-banking, innovatsiyalar, moliyaviy inklyuziya, elektron to'lovlar, iqtisodiy samaradorlik.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНЦИИ СРЕДИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА

Кулметов Мансурбек Рузматович

*Доцент кафедры «экономики и цифровых технологий» Дипломатического
университета*

mansur1@mail.ru

Аннотация: В данной статье анализируется роль цифровых технологий в усилении конкуренции между коммерческими банками Узбекистана. Цифровая трансформация способствует повышению эффективности деятельности банков, улучшению качества обслуживания клиентов и расширению финансовой инклюзии. Исследование основано на анализе влияния мобильных приложений, онлайн-банкинга и финтех-решений на конкурентную среду. Результаты показывают, что цифровые технологии являются важным фактором обеспечения устойчивости и конкурентоспособности банковской системы.

Ключевые слова: цифровая трансформация, коммерческие банки, конкуренция, финтех, онлайн-банкинг, инновации, финансовая инклюзия, электронные платежи, экономическая эффективность.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING COMPETITION AMONG COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN

Kulmetov Mansurbek Rozmatovich

*Associate Professor of the Department of «Economics and Digital Technologies»,
Diplomat University*

mansur1@mail.ru

Abstract: This article analyzes the role of digital technologies in strengthening competition among commercial banks in Uzbekistan. Digital transformation enhances banking efficiency, improves customer service quality, and expands financial inclusion. The study examines the impact of mobile applications, online banking, and fintech solutions on interbank competition using statistical analysis. The results demonstrate that digital technologies are a key factor in ensuring the stability and competitiveness of the banking system.

Keywords: digital transformation, commercial banks, competition, fintech, online banking, innovations, financial inclusion, electronic payments, economic efficiency.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, moliya-bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish — bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki davlat boshqaruvi, biznes va jamiyat o‘rtasidagi yangi hamkorlik madaniyatini shakllantirishdir”¹.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya-bank sektorini modernizatsiya qilish, raqamli mahsulotlar ulushini oshirish va mijozlarga qulay, shaffof xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda raqamli tranzaksiyalar hajmi 4,6 baravar oshgan, elektron to‘lovlar ulushi esa umumiy to‘lovlar hajmining 72

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish — strategik ustuvor yo‘nalish” mavzusidagi nutqidan. – 2023-yil.

foiziga yetgan². Bu jarayon tijorat banklari o‘rtasida raqobatni kuchaytirish bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi va inklyuzivligini ham ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish milliy rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, moliya-bank tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish – bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki davlat boshqaruvi, biznes va jamiyat o‘rtasidagi yangi hamkorlik madaniyatini shakllantirishdir”³.

Raqamli texnologiyalar bank xizmatlari sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. 2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston bank tizimida raqamli tranzaksiyalar hajmi 4,6 baravar oshgan, onlayn mijozlar soni esa uch baravar ko‘paygan⁴. Shu bilan birga, Payme, Click, Apelsin, iBank kabi raqamli to‘lov platformalari banklararo raqobatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya-bank sektorini modernizatsiya qilish, raqamli mahsulotlar ulushini oshirish va mijozlarga qulay hamda shaffof xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda⁵. Bu jarayon nafaqat banklarning ichki boshqaruv samaradorligini oshirish, balki ular o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni kuchaytirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

An’anaviy bank tizimidan farqli ravishda, raqamli texnologiyalar real vaqt rejimida operatsiyalarni amalga oshirish, onlayn kreditlash, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish va sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish imkonini bermoqda. Natijada har bir tijorat banki mijozlar e’tiborini jalb etish va raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishga majbur bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekiston tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishda raqamli texnologiyalarning o‘rmini aniqlash, ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda global miqyosda bank sektorida raqobat ustunligini shakllantirishda raqamli transformatsiya hal qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. M. Porter o‘zining “Competitive Advantage” asarida texnologiyani kompaniyaning

² Markaziy bank ma’lumotlari. – 2024-yilgi hisobot. www.cbu.uz

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning nutqidan. – 2023-yil.

⁴ Markaziy bank hisobot ma’lumotlari. – 2024-yil. www.cbu.uz

⁵ “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – PQ–6079-son qaror, 2020-yil 5-oktabr.

qiymat zanjiri bo‘ylab qo‘llash orqali raqobat ustunligini barqaror saqlash mumkinligini ta’kidlaydi⁶. Ushbu konsepsiya bank xizmatlari sohasida xizmat tezligi, qulaylik va moslashuvchanlik orqali mijoz uchun qo‘shimcha qiymat yaratishga asos bo‘lmoqda.

P. Kotler va G. Armstrong esa raqamli marketing va innovatsiyalar integratsiyasi mijoz tajribasini individuallashtirish orqali raqobatni yangi bosqichga olib chiqishini ko‘rsatadi⁷. Ularning fikricha, raqamli xizmatlarda tezkorlik va ishonchlik mijoz sadoqatini oshirib, bankning bozor ulushini kengaytiradi.

McKinsey & Company global bankchilik hisobotida raqamli transformatsiya va generativ sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishi banklarning rentabelligi, risk-boshqaruv sifati va mijoz markazli boshqaruv tizimlariga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini qayd etadi⁸. Hisobotda 2025-yilga kelib raqamli strategiyani muvaffaqiyatli joriy qilgan banklarning foydalilik darajasi o‘rtacha 18–22% yuqoriligi aniqlangan.

Jahon banki (World Bank, 2023) va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF, 2024) hisobotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli to‘lov tizimlari moliyaviy inklyuziyani oshirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirgan. Masalan, 2020–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda mobil to‘lovlar ulushi 40% dan 68% gacha o‘sgan, bu esa raqamli moliyaviy xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini tasdiqlaydi⁹.

Accenture tahlillarida raqobat endilikda nafaqat foiz stavkasi yoki filiallar soni bilan, balki raqamli tajriba, tezkor xizmat, ekotizim hamkorligi (ecosystem partnership) va “embedded finance” modellar orqali belgilanayotgani qayd etiladi¹⁰. Deloitte ham banklararo raqobat paradigmasi endi texnologik moslashuvchanlik, API integratsiya va mijozlar ma’lumotlarini tahlil qilish qobiliyatiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi¹¹.

O‘zbekiston misolida esa bir qator mahalliy olimlar raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilgan. S. Saidov o‘z tadqiqotida “Click”, “Payme”, “Apelsin” kabi elektron to‘lov tizimlari moliyaviy xizmatlar segmentatsiyasini kengaytirib, banklar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirganini ko‘rsatadi¹². Sh. Raximov esa raqamli innovatsiyalar joriy etilishi bank operatsion xarajatlarini 20% gacha qisqartirgani va xizmat tezligini oshirgani natijasida banklarning samaradorlik darajasi ko‘tarilganini empirik asoslarda isbotlaydi¹³.

⁶ Porter M. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 2008.

⁷ Kotler P., Armstrong G. *Principles of Marketing*. — 17th ed., Pearson Education, 2017.

⁸ McKinsey & Company. *Global Banking Annual Report 2024: The Next Wave of Digital Banking*. — London, 2024.

⁹ World Bank. *Financial Inclusion and Digital Payments Report 2023*. — Washington, D.C., 2023.

¹⁰ Accenture. *Banking Trends 2025: Reinventing Digital Growth*. — Dublin, 2025

¹¹ Deloitte. *Digital Banking Outlook 2024*. — New York, 2024..

¹² Saidov S. *O‘zbekiston bank tizimidagi raqamli transformatsiya yo‘nalishlari*. — “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, №4, 2022.

¹³ Raximov Sh. *Raqamli innovatsiyalar va bank samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik*. — Toshkent moliya instituti ilmiy to‘plami, №2, 2023.

Shuningdek, A. Qodirov raqamli bank tizimining rivojlanishida kiberxavfsizlik, ma'lumotlar bazasini himoyalash va fintech kompaniyalar bilan hamkorlikning o'rni tobora muhimlashayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli ekotizim bank raqobatining yangi makonini yaratmoqda, bunda hamkorlik va innovatsiyalar asosiy drayverga aylanmoqda¹⁴.

Xalqaro miqyosda va O'zbekiston tajribasida keltirilgan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar moliyaviy sektorni qayta shakllantirib, mijoz markazli boshqaruv, ma'lumotga asoslangan qarorlar va platformaviy hamkorlik orqali yangi raqobat paradigmasini yuzaga keltirmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston tijorat banklari o'rtasidagi raqobat darajasiga raqamli texnologiyalar ta'sirini aniqlash, ularning samaradorlikka qo'shayotgan hissasini baholash hamda bank tizimida raqobatni kuchaytiruvchi raqamli omillarni aniqlashdan iborat. Shu bois, tadqiqot metodologiyasi nazariy, statistik va empirik tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda sistematik yondashuv, kompleks tahlil va taqqoslama tahlil prinsiplari qo'llanildi. Raqamlashtirish jarayonining banklararo raqobatga ta'siri uchta asosiy ko'rsatkich — raqamli xizmatlar hajmi, mijozlar soni va texnologik innovatsiyalar orqali baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining barcha yo'nalishlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi ularning raqobatbardoshligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojlarini tezroq qondirish imkonini berdi. Bu jarayon iqtisodiy jihatdan ham ijobiy natijalar bermoqda — xizmatlar sifati va tezligi oshishi bilan birga, bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilandi, mijozlar segmenti kengaydi va kapital aylanish tezlashdi.

Raqamli transformatsiya natijasida bank tizimi faoliyatining samaradorligi sezilarli oshdi. Masalan, 2020–2024-yillar oralig'ida raqamli tranzaksiyalar hajmi 98,2 trln so'mdan 452,8 trln so'mgacha, ya'ni 4,6 baravar o'sdi. Shu davrda mobil ilova foydalanuvchilari soni 6,1 mln dan 16,8 mln gacha ko'paydi. Bu holat nafaqat xizmatlar ommalashganini, balki raqamli infratuzilmaning kengayib, aholining moliyaviy xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi¹⁵.

Tahlilda banklararo raqobatni aniqlash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qo'llanildi. Ushbu indeks bozor konsentratsiyasining darajasini o'lchashga yordam beradi:

¹⁴ Qodirov A. *Raqamli bank tizimida kiberxavfsizlik va fintech hamkorligi*. — “Moliyaviy tahlil” jurnali, №3, 2024.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2020–2024).

$$HHI = \sum_{i=1}^n S_i^2$$

bu yerda:

- S_i – i -bankning bozor ulushi (0 dan 1 gacha),
- n – bozordagi faoliyat yuritayotgan banklar soni.

Tahlil mezonlariga ko‘ra:

- Agar $HHI < 0.15$ (1500 dan past) bo‘lsa – bu raqobat kuchli bo‘lgan bozorni bildiradi;

- Agar $0.15 \leq HHI \leq 0.25$ (1500–2500) – o‘rtacha konsentratsiya mavjud bo‘lgan bozorni anglatadi;

- Agar $HHI > 0.25$ (2500 dan yuqori) – bu monopol bozorni bildiradi.

Masalan, agar O‘zbekistonda 35 ta tijorat banki mavjud bo‘lib, ularning o‘rtacha bozor ulushi 2–5% atrofida bo‘lsa, umumiy $HHI \approx 0.14$ ni tashkil etadi, bu esa raqobatning kuchliligini bildiradi.

1-jadval


O‘zbekiston bank tizimida raqamli ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi (2020–2024-yy.)¹⁶

Yil	Raqamli tranzaksiyalar hajmi (trln so‘m)	Mobil ilova foydalanuvchilari (mln)	HHI indeksi	Elektron to‘lov ulushi (%)	Eng faol banklar
2020	98.2	6.1	0.198	42.5	Kapitalbank, Ipoteka-bank, Hamkorbank
2021	154.7	8.4	0.185	49.6	Kapitalbank, Agrobank, Asaka banki
2022	236.3	10.9	0.174	55.2	TBC Bank, Trastbank, Anorbank
2023	327.5	13.5	0.161	61.8	TBC Bank, Apelsin, Kapitalbank
2024	452.8	16.8	0.147	68.4	Kapitalbank, TBC Bank, Ipoteka-bank, Anorbank

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli to‘lov ulushi 2020-yildagi 42,5 foizdan 2024-yilda 68,4 foizga oshgan. Bu esa naqd pul muomalasining qisqarishiga va iqtisodiy muhitning shafflashuviga xizmat qilgan. Banklarning raqamli xizmatlarga

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2020–2024).

yo‘naltirilgan investitsiyalari esa operatsion samaradorlikni 25–30 foizgacha oshirgan, tranzaksiya xarajatlarini esa 18–20 foizgacha kamaytirgan.



1-grafik. HHI indeksi dinamikasi (2020-2024)¹⁷

2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat darajasining sezilarli o‘zgarishi kuzatilgan. 1-grafikdan ko‘rinib turibdiki, Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) 2020-yildagi 0.198 ko‘rsatkichdan 2024-yilda 0.147 gacha pasaygan. Bu esa bozor konsentratsiyasining kamayib, raqobat kuchayganini bildiradi. HHI indeksining bunday pasayish tendensiyasi raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida yangi ishtirokchilar paydo bo‘lgani, fintech kompaniyalar raqobatni faollashtirgani bilan izohlanadi.


Ushbu 2-grafik raqamli foydalanuvchilar soni hamda elektron to‘lov ulushi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatadi. 2020-yilda 6,1 mln foydalanuvchidan iborat bo‘lgan mobil ilova auditoriyasi 2024-yilga kelib 16,8 mln nafarga yetgan, elektron to‘lovlar ulushi esa 42,5% dan 68,4% gacha o‘sgan.

Bu ko‘rsatkichlar raqamli savodxonlikning ortishi, banklarning mobil xizmatlar sifatini oshirishi hamda mijozlar orasida raqamli to‘lov infratuzilmasining keng qabul qilinayotganini isbotlaydi. Bunday o‘shish banklar uchun nafaqat mijoz bazasining kengayishiga, balki xarajatlarning kamayishiga ham xizmat qilmoqda.

Tadqiqotda trend tahlili usuli orqali 2020–2024-yillar oralig‘ida raqamli xizmatlar hajmi, tranzaksiyalar soni va mijozlar bazasi o‘shish sur‘atlari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, raqamli xizmatlar hajmi besh baravar, onlayn mijozlar soni esa uch baravar oshgan¹⁸.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimining yillik hisobotlari, 2020–2024-yillar.” – T.: 2025.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimining yillik hisobotlari, 2020–2024-yillar.” – Toshkent: 2025.



2-grafik. Mobil foydalanuvchilar va elektron to'lov ulushi o'sishi¹⁹

Raqamli platformalarning rivojlanishi natijasida bank xizmatlari sifatining oshishi bilan birga, mijozlar uchun tanlov imkoniyati kengaydi. Masalan, Kapitalbank, TBC Bank va Apelsin kabi ilg'or raqamli yo'nalishda faol banklar so'nggi to'rt yil ichida o'z mijozlar sonini ikki baravarga oshirgan. Ularning yaratgan innovatsion mahsulotlari — onlayn kreditlar, masofaviy depozitlar, mobil valyuta ayirboshlash va QR-to'lov tizimlari — yangi raqobat yo'nalishlarini shakllantirdi.

O'zbekiston tajribasi xalqaro tendensiyalar bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda. McKinsey (2023) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bank tizimining umumiy samaradorligini o'rtacha 30–35% ga oshirgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash tendensiya kuzatilib, tijorat banklarining sof foyda marjasi oshgan, xizmatlar diver-sifikatsiyasi kengaygan va kredit portfeli sifatining yaxshilanishi kuzatilgan²⁰.

Bundan tashqari, bank xizmatlarida mijoz markazli (customer-centric) model shakllandi. Mobil ilovalar orqali kredit, depozit va hisob-kitob operatsiyalarining 80 foizdan ortig'i amalga oshirilmoqda. Bu holat xizmatlarni soddalashtiradi, geografik cheklolarni yo'qotadi va moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi.

Raqamli banklar (neo-banklar) faoliyati misolida bu tendensiya yanada yaqqol ko'rinadi. Masalan, TBC Bank O'zbekistonda to'liq onlayn kreditlash tizimini joriy etgan ilk banklardan biri sifatida 2024-yil yakunida 1 mln dan ortiq aktiv foydalanuvchiga ega bo'ldi. Shuningdek, Xalq banki, Ipoteka-bank va Agro-bank

¹⁹ Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi. "Fintech va bank raqobati tahlili." – T.: 2024.

²⁰ Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi (DERC), *Bank raqobati va raqamli transformatsiya tahlili*, 2025.

tizimida “mobil to‘lov markazlari” va “raqamli kassalar” faoliyat yuritmoqda. Bu tashabbuslar banklar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirish bilan birga, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirdi.

Xalqaro tajribada ham shunga o‘xshash jarayon kuzatiladi. Masalan, Janubiy Koreyada 2024-yil holatiga ko‘ra, barcha bank tranzaksiyalarining 95 foizi raqamli kanallar orqali amalga oshiriladi; Rossiyada esa bu ko‘rsatkich 86 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ulush 68,4 foiz bo‘lib, o‘shirish sur‘atlari bo‘yicha MDH mamlakatlari orasida eng yuqori natijalardan biriga ega.

Mazkur natijalar raqamlashtirishni oddiy texnologik modernizatsiya emas, balki iqtisodiyotda raqobat muhitini tubdan o‘zgartiruvchi mexanizm sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli innovatsiyalar bank xizmatlari sifatini oshiribgina qolmay, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ham oshiradi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar uchun asosiy strategik ustuvorlik — raqamli xizmatlarni integratsiyalash, xavfsizlikni mustahkamlash va mijoz markazli ekotizimni yaratish hisoblanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar O‘zbekiston bank tizimining raqobat muhitini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari natijasida bank xizmatlarining tezligi, sifati va qulayligi oshib, moliyaviy inklyuziya darajasi sezilarli kengaydi. 2020–2024-yillar oralig‘ida raqamli tranzaksiyalar hajmi 98,2 trln so‘mdan 452,8 trln so‘mgacha o‘sib, 4,6 baravarga ko‘paygani, shuningdek, bozor konsentratsiyasini aks ettiruvchi Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) 0,198 dan 0,147 gacha kamaygani raqamlashtirishning banklararo raqobatga bevosita ijobiy ta‘sirini tasdiqlaydi.

Raqamli platformalar — Payme, Click, Apelsin, iBank kabi tizimlar hamda tijorat banklarining mobil ilovalari moliyaviy xizmatlarni tez, qulay va shaffof tarzda amalga oshirish imkonini berdi. Natijada mijozlar soni uch baravar oshib, banklarning innovatsion yechimlar orqali iqtisodiy samaradorligi kuchaydi.

Raqamli transformatsiya nafaqat texnologik modernizatsiya, balki banklar o‘rtasidagi raqobatni tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. U banklarning ichki boshqaruv jarayonlarini optimallashtirib, xarajatlarni kamaytirish, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va mijoz markazli yondashuvni kuchaytirish imkonini bermoqda. Shuningdek, raqamli innovatsiyalar bank sektorida samarali hamkorlik va sog‘lom raqobat muhitini yaratib, iqtisodiy o‘shirishning yangi drayveriga aylandi.

1. Raqamli texnologiyalar banklararo raqobatning sifatini oshiradi. Raqamli xizmatlar ulushi ortgani sari HHI indeksining pasayishi raqobat kuchayganini

isbotladi. Raqamli texnologiyalar banklar o'rtasida narx, tezlik va xizmat sifati bo'yicha yangi raqobat yo'nalishlarini shakllantirdi.

2. Fintech ekotizimlar bank xizmatlarini kengaytiruvchi kuch sifatida shakllanmoqda. Payme, Apelsin, Click va iBank kabi raqamli to'lov tizimlari bank xizmatlarining segmentatsiyasini kengaytirib, mijozlarning tanlov imkoniyatini oshirdi.

3. Raqamli transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirdi. Banklarda operatsion samaradorlik o'rtacha 25–30%, tranzaksiya xarajatlari esa 18–20% gacha kamaydi. Bu raqamlar raqamlashtirishning moliyaviy foydasini amaliy tarzda tasdiqlaydi.

4. Bozorning ochiqligi va raqamli integratsiya raqobatni kuchaytiradi. Yagona API-platformalar orqali banklar o'rtasida ma'lumot almashish imkoniyati yaratilsa, xizmatlarning shaffofligi oshadi va innovatsion mahsulotlar bozori kengayadi.

5. Raqamli bank xizmatlari moliyaviy inklyuziyani oshiradi. 2024-yil yakunida aholining 68 foizdan ortig'i kamida bir marta raqamli to'lov yoki onlayn operatsiyadan foydalangan. Bu esa iqtisodiy faol qatlamning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Amaliy takliflar:

1. Banklararo yagona raqamli integratsiya platformasini yaratish. API texnologiyalariga asoslangan, barcha tijorat banklari uchun ochiq va muvofiqlashtirilgan tizim joriy etish raqobatni adolatli va shaffof qiladi. Bu tizim orqali to'lov, kredit, depozit va identifikatsiya jarayonlari yagona platforma asosida boshqarilishi mumkin.

2. Fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish. Innovatsion yechimlar (mikrokreditlar, raqamli sug'urta, blokcheyn to'lov tizimlari)ni ishlab chiqishda hamkorlik banklarning moslashuvchanligini oshiradi va xizmatlar doirasini kengaytiradi.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish milliy dasturini joriy etish. Fuqarolarning raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish, ayniqsa, qishloq hududlarda onlayn to'lovlarni ommalashtirish raqamli iqtisodiyot ulushini yanada oshiradi.

4. Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash. Bank tizimida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, sun'iy intellekt asosida tahdidlarni aniqlovchi tizimlarni joriy etish orqali raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchni oshirish zarur.

5. Raqamli transformatsiya loyihalariga fiskal rag'batlar berish. Innovatsion texnologiyalarni joriy etayotgan banklar uchun soliq imtiyozlari, kredit preferensiyalari va grant mexanizmlarini yaratish banklarni ilg'or raqamli yechimlarga investitsiya kiritishga undaydi.

6. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish. Raqamli bank xizmatlarini hududlar kesimida kengaytirish uchun davlat tomonidan infratuzilma (internet tarmog‘i, axborot xavfsizligi, data markazlar)ni qo‘llab-quvvatlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish — strategik ustuvor yo‘nalish” mavzusidagi nutqidan. — 2023-yil.

2. Markaziy bank ma’lumotlari. — 2024-yilgi hisobot. www.cbu.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning nutqidan. — 2023-yil.

4. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. — PQ–6079-son qaror, 2020-yil 5-oktabr.

5. Porter M. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 2008.

6. Kotler P., Armstrong G. *Principles of Marketing*. — 17th ed., Pearson Education, 2017.

7. McKinsey & Company. *Global Banking Annual Report 2024: The Next Wave of Digital Banking*. — London, 2024.

8. World Bank. *Financial Inclusion and Digital Payments Report 2023*. — Washington, D.C., 2023.

9. Accenture. *Banking Trends 2025: Reinventing Digital Growth*. — Dublin, 2025

10. Deloitte. *Digital Banking Outlook 2024*. — New York, 2024.

11. Saidov S. *O‘zbekiston bank tizimidagi raqamli transformatsiya yo‘nalishlari*. — “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, №4, 2022.

12. Raximov Sh. *Raqamli innovatsiyalar va bank samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik*. — Toshkent moliya instituti ilmiy to‘plami, №2, 2023.

13. Qodirov A. *Raqamli bank tizimida kiberxavfsizlik va fintech hamkorligi*. — “Moliyaviy tahlil” jurnali, №3, 2024.

14. Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi. “Fintech va bank raqobati tahlili”. — T.: 2024.

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *“Bank tizimining yillik hisobotlari, 2020–2024-yillar.”* — Toshkent: 2025.

16. Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi (DERC), *Bank raqobati va raqamli transformatsiya tahlili, 2025*.